



**SAMARQAND VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI**



**SAMARQAND
VILOYATINING SANOAT
ISHLAB CHIQRISHI**

*2022- YIL YANVAR-MART
(DASTLABKI MA'LUMOT)*




Samarqand viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


(2022- yil yanvar-mart oylarida)

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2022- yilning yanvar-mart oylarida viloyat korxonalaridan 5 649,0 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2021- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 110,7 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 95,7 % ni tashkil etdi.



Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* % da




*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan sanoat– 8,9 %, o'sishi kuzatildi.


Shuningdek, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning– 14,1 % ga , Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash - 51,6 % ga hamda Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish – 17,9 % ga pasayish kuzatildi.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2022- yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 63,5 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,1 % ini tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, foizda




Ishlab chiqaradigan sanoat

mlrd. so'm

Yanvar-Mart

FHI,% da



2022- yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 5 403,7 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 95,7 % ini tashkil etdi.

2021-yil yanvar-mart


94,4 %

2022-yil yanvar-mart

95,7 %

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,2 % ni (2021- yilning yanvar-mart oylarida – 0,3 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 15,8 % (15,8 %), o'rta-quyi texnologiyali – 12,8 % (17,2 %) va quyi texnologiyali – 65,5 % (62,2 %)ni tashkil etdi.

■ 2021- yil ■ 2022- yil



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi - 3,8 % (2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 94,4 %), metallurgiya sanoatining ulushi - 9,3 % (2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi – 203,2 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 28,2 % (2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 114,0 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 37,5 % (2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 110,1 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 2,8 % (2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 103,2 %) ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati
O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da


Aroq




O'simlik yog'i (tozalangan)




Paxta tolasi



Tamaki



Pivo



Yumshoq bug'doy va spelta uni




2022- yilning yanvar-mart oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda Aroq – 25,8 ming litr 100 % spirt (2021- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 22,2 % ga pasaygan), 16,8 ming tonna paxta tolasi (100,3 %) ishlab chiqarishda o'sish kuzatildi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-mart	2022- yil yanvar-mart	2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan o'sish, % da
Paxta tolasi, ming tonna.	16,7	16,8	100,3
Pivo, ming litr	5455,0	5993,0	109,9
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming tonna	44,4	42,3	95,1
O'simlik yog'i (tozalangan) tonna	12504	7709	53,9
Konyak spirti – litr 100 % spirt	160,2	115,0	71,8
Tamaki, mln dona	1742	2150	123,4
Birinchi navli undan tayyorlangan bug'doy noni og'irligi 600 g (buxanka), tonna.	155,2	184,6	119,0
Paxta tiviti tonna	1613,5	2271,1	140,8

Metallurgiya sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-mart oylarida metallurgiya sanoati ulushi 5,5 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 157,2 % ni tashkil etgan bo'lsa, Shuningdek, 2022- yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 9,3 % gacha ko'tarilib, fizik hajm indeksi esa, 203,2 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 501,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-mart oylarida mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarishning ulushi 1,2 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 101,8 % ni tashkil etgan bo'lsa, Shuningdek, 2022- yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra, mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 3,1 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 251,4 % ga o'sgan va ishlab chiqarish hajmi 165,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati


Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-mart oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 27,4 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 108,7 % ni tashkil etgan bo'lsa, Shuningdek, 2022- yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 28,2 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 114,0 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 1 524,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.




To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-mart oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 22,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 127,1 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-mart oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 20,5 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 85,6 % ga o'sgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 1 110,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Kiyim ishlab chiqarish sanoati



2021- yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,7 % ni, fizik hajm indeksi esa 101,2% ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-mart oylarida kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,5 %, fizik hajm indeksi 129,1 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 189,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2021- yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,0 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 71,9 % ni tashkil etgan.


Shuningdek, 2022- yilning yanvar-mart oylarida kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,2 % ni, fizik hajm indeksi 87,4 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 66,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 142,3 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 2,5 % ini) tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-mart oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 85,9 % ni tashkil etdi.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-mart	2022- yil yanvar-mart	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	110245,2	83948,5	-26296,7
Issiqlik energiyasi, ming gkal	2746848	3534165	787317

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 39,5 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,7 % ini) tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-mart	2022- yil yanvar-mart	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	10 230,3	10 163,3	-67,0
Xavsiz chiqindilarni qayta ishlash bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	6847,2	5659,4	-1187,8
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	25,4	19,8	-5,6

O'tgan yilning mos davriga nisbatan oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 99,3 % ni va Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar- 5,6 (%) ga kamayganligi kuzatildi.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 4 079,5 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2021- yilning mos davriga nisbatan 122,3 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 72,2 % ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari

2021- yil
yanvar-mart

40,2%

2022- yil
yanvar-mart

33,2%

Nooziq-ovqat mahsulotlar

2021- yil
yanvar-mart

59,8%

2022- yil
yanvar-mart

66,8%




Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 1,0 % (2021- yil yanvar-mart oylarida 1,3%)ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Samarqand shahriga to'g'ri kelib 42,5 % ni, Urgut tumani 10,7 % ni, Tayloq tumani 9,4 % ni, Samarqand tumani 8,5 % ni, hamda Jomboy tumani 7,3 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (122,3 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Ishtixon tumanida (299,0 %) hamda Tayloq tumanida (151,3 %) qayd etildi.

Shahar va tumanlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Samarqand shahriga to'g'ri kelib 42,5 % shuningdek, Urgut 10,7 %, Tayloq 9,4 % ni, Samarqand tumanlarida 8,5 % ni tashkil etdi.



Shahar va tumanlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Samarqand shahriga to'g'ri kelib, 47,3 % shuningdek, tumanlardan Urgut 14,4 %, Tayloq 8,3 % ni, hamda Ishtixon tumani 4,9 % ni tashkil etdi.

443,7 mlrd. so'm


2020- yil yanvar-mart

2 071,8 mlrd. so'm

2021- yil yanvar-mart

2 724,5 mlrd. so'm

2022- yil yanvar-mart



Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmida nooziq-ovqat mahsulotlarining ulushi

01

2020- yil

103,6 %

02


2021- yil

116,6 %

03

2022- yil

131,5 %





o'sish sur'ati


mlrd. so'm

Shahar va tumanlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatdagi jami hajmidagi eng yuqori ulushi Samarqand shahriga to'g'ri kelib, 32,8 % ni, shuningdek, Jomboy tumani 15,7 % ni, Tayloq tumani esa 11,4 % ni tashkil etdi.



Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi



Samarqand viloyati shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

Shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarilishining viloyatning jami hajmidagi eng yuqori ulushi Samarqand shahriga to'g'ri kelib, 43,1 % ni, shuningdek, Jomboy tumani 12,5 % ni, Urgut tumani esa 8,5 % ni tashkil etdi.

Samarqand viloyati

2020- yil

3 302,7 mlrd. so'm

2021 yil

4 512,8 mlrd. so'm

2022- yil

5 649,0 mlrd. so'm



2020- yil

93,4 %

2021- yil

107,5 %

2022- yil

110,7 %

Kattaqo'rg'on sh.

56,6
57,9

Samarqand sh.

102,6 2 433,3

Toyloq

97,5
399,4

Urgut

105,8
478,6

Nurobod

82,6
93,3

Samarqand

112,0
426,4

Paxtachi

102,4
154,8

Pastdarg'om

116,8
1770,2

Payariq

114,8
117,0

Narpay

110,6
148,6

Qo'shrabot

80,7
15,4

Kattaqo'rg'on

143,2
148,6

Ishtixon

116,7
150,5

Jomboy

134,1
707,4

Bulung'ur

110,6
81,1

Oqdaryo

74,2
53,6

FHI, % da

mlrd. so'm

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2 128,8 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 37,7 % ni tashkil etdi.


Shahar va tumanlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Bulungʻur tumanida (100,0 %), Qoʻshrobot tumanida (100,0 %), Kattaqoʻrgʻon shahrida (92,3 %), Oqdaryo tumanida (80,8 %), Kattaqoʻrgʻon tumanida (76,9 %) tashkil etdi.



Viloyatimizda shahar va tumanlar kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni koʻrsatdiki, Narpay tumanida (14,5 %), Ishtixon (17,7 %), Paxtachi (24,0 %), Tayloq (26,1 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

Samarqand vloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda viloyatimizda 8 239 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1 722 tasi (mavjud korxonalar umumiy sonining 20,9 %) Samarqand shahriga, 1 201 tasi (14,6 %) Urgut tumaniga, 753 tasi (9,1 %) Samarqand tumani hissasiga to'g'ri kelmoqda.



Jami yangi tashkil etilgan

2020-yil 420 dona

2021- yil 558 dona

2022- yil 517 dona



Jami faoliyat yuritayotgan

2020- yil 6 280dona

2021- yil 7 276 dona

2022- yil 8 239 dona

yangi tashkil etilgan

faoliyat yuritayotgan